

SANOAT TARMOQLARIDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISHDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STATISTIK TAHLILI

Fahridin Umarov

Toshkent moliya instituti "Iqtisodiy xavfsizlik" kafedrasida katta o'qituvchisi

Abstract

this scientific article highlights the definitions of the term "green economy" given by scientists of the world and our country. The theory of the "green economy" is revealed. The importance and relevance of the "green economy" in Uzbekistan have been identified by the latest government regulations. At the same time, the impact and importance of the "green economy" for industries and sectors were shown. Separately, it should be noted that the "green economy" penetrates into the education system of our country and increases development trends.

Keywords

green economy, environment, resources, green investments, green space.

Аннотация

в данной научной статье приведены определения термина "зеленая экономика", сформулированные учеными мира и нашей страны, изложена теория "зеленой экономики". Важность и актуальность "зеленой экономики" в Узбекистане были обозначены последними правительственными нормативно-правовыми актами. Кроме того, показано влияние и важность "зеленой экономики" для отраслей и секторов. Отдельно следует отметить, что "зеленая экономика" проникает в систему образования нашей страны и наращивает тенденции развития.

Ключевые слова

зеленая экономика, окружающая среда, ресурсы, зеленые инвестиции, зеленое пространство.

Annotatsiya

ushbu ilmiy maqolada "yashil iqtisodiyot" atamasiga jahon va mamlakatimiz olimlari tomondan keltirilgan ta'riflar yoritilgan, "Yashil iqtisodiyot" nazariyasi ochib berilgan. Hukumat-

ning so'nggi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida "Yashil iqtisodiyot"ning O'zbekiston uchun muhimligi va dolzarbligi ko'rsatib berilgan. Shu bilan birga "yashil iqtisodiyot"ning soha va tarmoqlarga ta'siri va muhimligi ko'rsatib berilgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, "yashil iqtisodiyot" mamlakatimiz ta'lim tizimiga kirib borishi hamda rivojlanish tendensiyasini oshib borishi keltirilgan.

Kalit so'zlar

yashil iqtisodiyot, atrof-muhit, resurslar, yashil investitsiya, yashil makon.

Kirish

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan ilgari surilayotgan "Barqaror rivojlanish" konsepsiyasi dunyo mamlakatlarining asosiy maqsadiga aylangan. XXI asrda barcha davlatlarning yuqori iqtisodiy o'sishga erishish maqsadi barqaror rivojlanish maqsadi bilan almashdi. Bu, o'z navbatida, jahon iqtisodiyotning barcha yo'nalishlari: qishloq xo'jaligi, sanoat, transport, moliya, energetika, qurilish sohalarining barchasi "yashil" tus olishi muhimligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari" mazmun-mohiyati Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan to'la hamohang ekanini ta'kidlab o'tdi [1]. "Harakatlar strategiyasi"da mo'ljallangan tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish maqsad va vazifalari belgilangan [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaat-nomasida 2020-yil va keyingi yillarda iqtisodiyot sohasida amalga oshirish zarur bo'lgan dasturiy va maqsadli vazifalarga atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilashga e'tiborni kuchaytirish, ishlab chiqarish jarayonini ekologik nazorat qilish tizimini takomillashtirish, ekologik audit o'tkazish tartibini qayta ko'rib chiqib, xususiy auditorlik faoliyatini jonlantirish muhim vazifalar sifatida qayd etildi [3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ekologik muammolar cheklangan tovar sifatida iqtisodga kiritilgan. Yangi – "yashil iqtisodiyot" tendensiyasi shakllandi va faol rivojlanmoqda. "Yashil iqtisodiyot" iqtisodiyot fanining yo'nalishi bo'lib, unda iqtisodiyot o'zi mavjud bo'lgan tabiiy muhitning tarkibiy qismi bo'lib, tabiiy resurslardan samarali foydalanish orqali jamiyat farovonligini ta'minlash, shuningdek, yakuniy foydalanish mahsulotlarini ishlab

chiqarish sikliga qaytarishga qaratilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhitni muhofaza qilish tashkiloti (BMTA) ekspertlari "yashil" iqtisodiyotni "odamlar farovonligini yaxshilaydigan va ijtimoiy adolatni ta'minlaydigan, shu bilan birga atrof-muhit va uning kamayishi xavfini sezilarli darajada kamaytiradigan" iqtisodiy faoliyat sifatida ko'rishadi. Yashil investitsiyalar – bu atrof-muhitni asrashga yo'naltirilgan, yangi asrovchi texnologiyalarni joriy etishni, yashil moliyaviy mahsulotlarni, muqobil energetikaning yangi bozorlarini va yashil energiya turlarini rivojlantirishni ko'zda tutuvchi loyihalar va modellarni moliyalashtirish manbalaridir. O'zbek olimlaridan A.A. Isadjanov "Yashil iqtisodiyot" haqida quyidagi fikrni keltiradi: "Yashil iqtisodiyot" – bu ertangi kun iqtisodiyoti va aynan u XXI asr iqtisodiy taraqqiyotining harakatga keltiruvchi kuchi bo'lib, "yashil iqtisodiyot" nazariyasi quyidagi uchta aksiomaga asoslanadi:

- cheklangan makonda ta'sir sohasini uzluksiz kengaytirib bo'lmaydi;
- resurslar cheklangan sharoitda uzluksiz oshib borayotgan ehtiyojni qondirishni talab qilish mumkin emas;
- "Yer yuzida hamma narsa bir-biri bilan bog'liq".

B.Alimov "Yashil iqtisodiyot"ning soha va tarmoqlarga ta'siri va muhimligini ko'rsatib bergan, "Yashil iqtisodiyot" mamlakatimiz ta'lim tizimiga kirib borishi hamda uning rivojlanish tendensiyalari yoritilgan.

Shuningdek, investitsiya faoliyatida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash, ularga baho berish asosida tegishli xulosalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Investitsiya samaradorligi borasidagi tadqiqotlar umumiy iqtisodiy muammo sifatida mamlakatimizning qator nazariyotchi va amaliyotchi olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, A.Abdug'aniyev fikricha, «Iqtisod fanlarida "samaradorlik" va "iqtisodiy samaradorlik" tushunchalari mavjud. Ular mamlakat, tarmoq, korxonalar, yo'nalishlar hamda ayrim mahsulotlar bo'yicha aniqlanishi mumkin [3].

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida respublikamizda investitsiya samaradorligi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar va ularning ta'sirini hisoblash yo'llarining ilmiy-nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirishning ba'zi jihatlari yoritilgan. Bularning barchasi milliy iqtisodiyotning investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va usullariga ta'sir etuvchi omillar asosida rivojlanish yo'llarini tadqiq etish va ularni moliyaviy ta'minlashning ilmiy-nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlarni olib borishni, natijalarni mamlakatimiz amaliyotiga tatbiq qilib, investitsiya faoliyatining moliyalashtirish manbalari va usullarini shakllantirishni rivojlantirish va takomillashtirish lozimligini ko'rsatmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Investitsiya samaradorligi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar va ularning ta'sirining joriy holati tahlil qilinib, investitsiyalarning korxonalar moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan. Tahlil jarayonida ilmiy abstraksiyalash, ekspert baholash, induksiya va deduksiya, taqqoslash, tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

Muhokama va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabr-dagi PQ-436-sonli "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori imzolandi. Unga ko'ra 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida "yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish maqsad qilib olingan. 2021-yil 30-mayda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasida o'tkazilgan "Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030" (P4G) ikkinchi xalqaro sammitida nutq so'zladi. Unda davlatimiz rahbari: "Bugungi kunda ona tabiatning o'zi bizga yo'llayotgan ogohlik qo'ng'irog'iga beparvo bo'lmasligimiz kerak. Afsuski, iqlim o'zgarishlari tobora kuchayib bormoqda. Biz yashayotgan Markaziy Osiyoda so'nggi 30 yilda o'rtacha yillik harorat taxminan bir darajaga ko'tarildi. Mintaqamizdagi asosiy daryolarning havzasi va biologik xilma-xillikning qisqarib borayotgani jiddiy xavotir uyg'otmoqda. Bug'lanish darajasini oshiradigan gazlar va atmosferaning keng miqyosda ifloslanishi muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda. Bugungi kunda "yashil taraqqiyot" borasidagi maqsadlarga erishish uchun mamlakatlarning harakatlari yanada faol va samarali bo'lishi kerakligiga hech kim shubha qilmayapti. Boshqa choramiz ham yo'q", – deb ta'kidladi .

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-apreldagi PQ-108-sonli "Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ilmiy yondashuvlarni kengaytirish va boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan: Oliy maktab tuzilmasida yuridik shaxs bo'lmagan "Yashil iqtisodiyotni ilgari surish va joriy etish" loyiha ofisi va Biznes inkubator va startup loyihalar bilan ishlash markazi tashkil etilsin hamda "Yashil" texnologiyalarni joriy etishning institutsional asoslarini rivojlantirish, ilmiy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish hamda mazkur sohada kadrlar malakasini oshirishda yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish vazifasi qo'yilgan [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabr-dagi PQ-436-sonli "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida "yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish maqsad qilib olingan. Ushbu maqsadga erishishga mo'ljallangan 2030-yilgacha O'zbekis-

ton Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturida quyidagilar nazarda tutilgan [6]:

- issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko'prog'iga yetkazish;
- sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;
- yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejavchi sug'orish texnologiyasini joriy etish;
- yiliga 200 million ko'chat ekish va ko'chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;
- respublika o'rmon fondi zaxiralari ko'rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish;
- hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish.

Shu bilan birga "Yashil" o'sish bo'yicha salohiyatni oshirish va inson kapitalini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari qatorida kichik grantlar ajratish orqali xususiy tijorat va notijorat tashkilotlarda o'qitish va maslahat xizmatlarini ko'rsatishni qo'llab-quvvatlash; xususiy tijorat va notijorat tashkilotlar uchun "yashil" iqtisodiyot masalalari bo'yicha ochiq ma'ruzalar, konferensiyalar va seminarlar o'tkazish xarajatlarini qoplashga qaratilgan kichik grantlar taqdim etish kabilar ko'rsatib o'tilgan.

Yashil iqtisodiyot o'sishga, daromad va ish o'rinlari yaratilishiga, iqtisodiy taraqqiyot va ekologik barqarorlik o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'zgartirishga intiladigan "yashil ish o'rinlari" modeliga aylanadi, ayniqsa, boylik nafaqat unumdorlikni, balki tabiiy boyliklarni hisobga olgan holda o'lchanadigan bo'lsa.

Jahon banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan birgalikda Iqtisodiyotning dekarbonizatsiyalash va "yashil" rivojlanish modeliga o'tish bo'yicha uzoq muddatli strategiyani (LTS – Long-Term Strategy for Decarbonization) ishlab chiqish loyihasi yo'lga qo'yildi. Parij bitimining 4-moddasida mamlakatlar 2050-yilgacha uglerod neytralligiga erishishga qaratilgan uzoq muddatli strategiyalarini ishlab chiqishi belgilangan.

Mazkur strategiya doirasida iqtisodiyot tarmoqlarida uglerod neytralligiga erishish uchun amalga oshiriladigan asosiy chora-tadbir va loyihalar, talab qilinadigan kapital qo'yilmalar hajmi ko'rsatilgan investitsiya rejasi tayyorlanadi. Shuningdek, Jahon banki bilan

birgalikda 2030-yilgacha iqlim o'zgarishining O'zbekiston iqtisodiyotiga bevosita va bilvosita ta'sirlari o'rganildi hamda uning asosida "Towards a Greener Economy" hisoboti tayyorlandi hamda II Xalqaro iqtisodiy forumda taqdimot qilindi, Jahon Banki va Vazirlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirildi. Iqlim o'zgarishi sharoitida iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha milliy baholash (CCDR – Climate Change and Development Report) loyihasini amalga oshirish yo'lga qo'yildi. Ushbu baholash iqtisodiyotga xalqaro arzon "yashil" moliyaviy ko'maklarni jalb qilishga yordam beradi.

Osiyo taraqqiyot banki ekspertlari tomonidan O'zbekistonda davlat investitsiyalarini boshqarishni baholashning iqlim bilan bog'liq mezonlarini (Climate – Public Investment Management Assessment – C-PIMA) qo'llash yuzasidan tahlillar yakunlanib, yakuniy hisobot taqdim etildi. 2022-yil yakunida Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) tomonidan 12 ta mamlakatda davlat investitsiyalarini boshqarishni baholashning iqlim bilan bog'liq mezonlari (C-PIMA) ishlab chiqilib, joriy etilgan. Xususan, 2021-yilda Buyuk Britaniya, Xorvatiya, Nepal, Kosta-Rika, Angliya; 2022-yilda Argentina, Grenada, Gaiti, Chad, Kongo, Ruanda, Gabon davlatlarida.

Osiyo taraqqiyot bankining tahlil natijalari bo'yicha davlat investitsiyalarini boshqarishni baholashning iqlim bilan bog'liq mezonlarini (C-PIMA) qo'llash yuzasidan quyidagi taklif va mulohazalar bildirilgan:

- iqlim o'zgarishi to'g'risidagi xabardorlikni oshirish;
- investitsiya siyosati to'g'risidagi hisobotni ishlab chiqish va investitsiyalar bilan bog'liq huquqiy bazani takomillashtirish;
- davlat investitsiyalarini boshqarish jarayonlari, asosiy milliy sektorlarni rivojlantirish strategiyalari va o'rta muddatli xarajatlar doirasi bilan bog'liqligini ta'minlash;
- davlat investitsiyalarini boshqarish (PIM)ni qo'llab-quvvatlovchi huquqiy va me'yoriy bazani birlashtirish;
- loyihalarni ishlab chiqish, baholash va tanlash uchun bir xil tartiblar qo'llanilishini ta'minlaydigan yagona davlat investitsiyalarini boshqarish tizimini yaratish;
- investitsiya ustuvorliklarini aniqlashda tarmoqlar rejalarining yo'naltiruvchi funksiyasini takomillashtirish;
- loyiha amalga oshirilgandan keyingi baholashni va auditni mustahkamlash;
- O'zbekistonda iqlim o'zgarishi jihatlaridan kelib chiqib, davlat investitsiyalarini boshqarish tizimini joriy etish;
- yashil strategiya infratuzilmasini qo'llab-quvvatlaydigan mahalliy moliya institutlari, bank va IT xizmatlarini qo'llab-quvvatlash;
- ekologik toza investitsiyalarni rivojlantirishda xususiy sektorning ishtiroki uchun sharoit yaratish.

O'zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi energiya manbalari joriy etilishini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida mamlakatda "yashil" energiya sertifikatlari tizimini joriy

qilish ishlari olib borilmoqda. Mahsulotlar qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobidan va ekologik toza texnologiyalar yordamida ishlab chiqarilganligini tasdiqlovchi hamda bu bilan bog'liq barcha jarayonlarni kuzatib borish imkonini beruvchi "yashil sertifikatlar" tizimi joriy etilmoqda. Mazkur tizimga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiyani ishlab chiqaruvchilar "yashil sertifikat"ni yakuniy foydalanuvchiga (mahsulot ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar) sotadi va bu bilan energiyani "tozaligi"ga kafolat beradi. Bu esa yakuniy foydalanuvchilarga o'z mahsulotlarini sotish va eksport qilish hajmini oshirish, xalqaro va xorijiy moliya tashkilotlaridan "yashil" investitsiyalar va "yashil" kreditlarni jalb qilish imkonini beradi.

Xulosa

Yuqoridagilar bilan birga yashil iqtisodiyot mamlakatlar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va dunyodagi qashshoqlikni yo'qotishga katta hissa qo'shadi. Yashil iqtisodiyotni amalga oshirish tabiiy resurslardan mas'uliyatli foydalanishni ta'minlaydigan ekologik barqaror strategiyalarni qabul qilishga imkon beradigan texnologik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Ammo yashil iqtisodiyot tomonidan taklif qilingan maqsadlarga erishish uchun zarur iqtisodiy resurslarni taqsimlash, atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalarini yanada qat'iyashtirish, subsidiyalar yaratish, atrof-muhit bilan do'stona faoliyat yuritish talab etiladi. Xuddi shunday, mamlakatlarga barqaror rivojlanishning asosiy shartlarini e'tibordan chetda qoldirmasdan, bir xil darajada kelishib olish imkonini beradigan yangi iqtisodiy asos yaratish zarur. Yashil iqtisodiyot barqarorlik parametrlari doirasida iqtisodiy rivojlanishga erishish, ya'ni sog'lom atrof-muhitni saqlash va resurslardan to'g'ri foydalanish uchun qashshoqlikni yo'q qilish hamda zaif ijtimoiy tarmoqlarni o'z maqsadlari yo'lida birlashtirishga intiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-sonli "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-aprelda PQ-108-sonli "Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ilmiy yondashuvlarni kengaytirish va boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrda PQ-4477-sonli "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. www.lex.uz
4. Alimov B.B (2019). Uzbekistan-Europe and Central Asia-P144856-Improving Pre-primary and General Secondary Education Project-Procurement Plan.

5. Alimov, B.B. (2021). Theoretical issues of business performance analysis of entity. Архив научных исследований, 1 (1).
6. Alimov B.B. O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi. ISSN-L: Miasto Przyszłości Kielce , 2023.